

AHOLIGA BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA YORDAMINI KO'RSATISH VA UNI TASHKIL ETISH TARTIBIGA OID

USLUBIY QO'LLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025

Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish va uni tashkil etish tartibiga oid uslubiy qo'llanma. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – ** b.

Mazkur uslubiy qo'llanma aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish va uni tashkil etish tartibiga oid asosiy qoidalarni yoritishga qaratilgan. Qo'llanma aholining sog'lig'ini muhofaza qilish, kasalliklarning oldini olish, birlamchi tibbiy yordamni samarali tashkil etish hamda aholiga tezkor va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy asoslarini izchil bayon etadi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini samarali yo'lga qo'yish aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, shuningdek, tibbiy xizmatlarning sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu jarayon sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, aholining turmush darajasini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir.

Qo'llanma tibbiyot xodimlari, sog'liqni saqlash muassasalari rahbarlari, shuningdek, sohaga aloqador boshqa manfaatdor tomonlar uchun amaliy-uslubiy ko'rsatma vazifasini bajaradi.

**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-maydagi 4790-sonli "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni	
Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 20-iyundagi 384-son "Respublikada aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish, aholiga sifatli va tezkor tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash, kasalliklarning erta oldini olish hamda aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalariga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish tizimi mamlakatda sog'liqni saqlashning poydevori sifatida aholi salomatligini mustahkamlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini takomillashtirish, uning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish, aholining barcha qatlamlari uchun qulay va samarali tibbiy yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish, shuningdek, shoshilinch va tezkor tibbiy yordam tizimini mustahkamlash bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida sog'liqni saqlash sohasida innovatsion yechimlarni qo'llash imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur uslubiy qo'llanma aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishning tashkiliy mexanizmlari, huquqiy asoslari va amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan. Unda aholining salomatligini muhofaza qilish, profilaktik choralarni kuchaytirish, zamonaviy

tibbiy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribalarni o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar o'z ifodasini topadi. Qo'llanma tibbiyot xodimlari, sog'liqni saqlash muassasalari rahbarlari, mahalliy boshqaruv organlari vakillari hamda sohaga aloqador boshqa manfaatdor tomonlar uchun amaliy-uslubiy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.



Umumiy qoidalar

Ushbu qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- **birlamchi tibbiy-sanitariya yordami** — profilaktika qilish, tashxis qo'yish, kasalliklarni davolash, homiladorlik kechishini kuzatish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda aholini sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlari to'g'risida xabardor qilish bo'yicha tadbirlarni o'z ichiga oladigan tibbiy yordam turi;
- **oilaviy poliklinika** — birlashtirilgan aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish uchun tashkil qilingan davlat tibbiyot muassasasi;
- **bemorlarni (aholini) yo'naltirish (marshrut)** — tibbiy yordam olish hamda undan foydalanish maqsadiga qarab oilaviy poliklinikalarga murojaat qilgan bemorlar (aholi) oqimini tizimli boshqarish jarayoni;

- **bemorni dinamik kuzatish** — bemorning salomatlik holatini tizimli monitoring qilish va kuzatish natijalari bo'yicha zarur tavsiya berish hamda tibbiy yordam ko'rsatish;
- **palliativ tibbiy yordam** — davolanishi qiyin bo'lgan kasallikka chalingan bemorlarning hayot sifatini yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan, og'riqdan xalos qilishga va kasallikning boshqa og'ir ko'rinishlarini yengillashtirishga qaratilgan tibbiy yordam turi;
- **patronaj xizmati** — tibbiyot brigadasi tomonidan bolalarga, uyda yotib qolgan va o'zgalar parvarishiga muhtoj bemorlarga, homiladorlarga, tug'ruqdan keyingi hamda tug'ish yoshidagi ayollarga "uyiga tashrif" asosida ko'rsatiladigan tibbiy xizmat turi;
- **profilaktika** — kasalliklarning paydo bo'lishi, dastlabki bosqichlarida rivojlanishi hamda asoratlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;
- **skrining tekshiruvlari** — aholi orasida kasalliklarni erta aniqlashga qaratilgan dasturlar majmui;
- **statsionar o'rnini bosuvchi tibbiy yordam** — oilaviy poliklinikalarda tashkil etilgan kunduzgi shifoxona, uy sharoitida aholiga tibbiy yordam ko'rsatish;
- **profilaktik tibbiy ko'rik** — aholini belgilangan tartibga muvofiq reja asosida tibbiy ko'rikdan o'tkazish jarayoni.

Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishni tashkil etish xo'jaligini yuritish tartibi



Oilaviy poliklinikalar faoliyati quyidagicha tashkil etiladi:



Tajriba-sinov loyihasida aholi tuman/shahar sog'liqni saqlash bo'limlari orqali tegishli oilaviy poliklinika brigadalariga biriktiriladi, oilaviy shifokor aholi tomonidan erkin tanlanadi.



Shifokor va aholi o'rtasida bitim tuzilib, unda tomonlarning huquq va majburiyatlari belgilanadi. Bitimga muvofiq, davlat budjeti hisobidan kafolatlangan paket doirasida bepul tibbiy yordam ko'rsatiladi.



Bepul tibbiy xizmat faqat oilaviy shifokor orqali (shoshilinch yordam mustasno) amalga oshiriladi. Zarurat tug'ilganda mutaxassislar va markaziy shifoxonaga elektron yo'llanmalar beriladi.



Aholi sonidan kelib chiqib, Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi bilan shartnoma tuziladi. 10 km uzoq hududlarda yashovchilar uchun sayyor tibbiy xizmat tashkil etiladi.



Oilaviy poliklinikalar tuman/shahar sog'liqni saqlash bo'limi buyrug'i bilan hududlarga birlashtiriladi. Hududda yashamaydigan, lekin poliklinikaga birlashtirilgan aholi ham kafolatlangan paket doirasida xizmat oladi (patronajdan tashqari).





Poliklinikalarda profilaktika, tashxis, davolash, reabilitatsiya, palliativ yordam, dispanserizatsiya, emlash va epidemiyaga qarshi tadbirlar amalga oshiriladi.



Filiallar **3 000** nafargacha aholi uchun, chekka hududlarda yoki **5 km** uzoqlikda tashkil qilinadi. Ular mahalla markazlari, maktablar yoki davlat binolarida joylashtirilishi mumkin. Filiallarda ko'rik, muolaja va gigiyenik xonalar bo'ladi.

Shifokorlar qabul vaqti **Sog'liqni saqlash vazirligi me'yorlariga muvofiq** belgilanadi.



Bilib oling!

Tibbiy xizmat poliklinika binosida ham, bemorning yashash joyida ham ko'rsatilishi mumkin.



Oilaviy poliklinika va tibbiyot brigadalari faoliyatini tashkil etish

DIQQAT!

Tibbiyot brigadasi tarkibi oilaviy shifokor, amaliyotchi hamshira va oila hamshiralaridan iborat bo'ladi.

Tibbiyot brigadasi va tor soha mutaxassislarining soni

- Sog'liqni saqlash vazirligi,
- Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
- Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shtat me'yorlariga muvofiq belgilanadi



Bilib oling!

Bunda tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'iga shtat me'yorlarida ko'zda tutilmagan lavozimlarni ajratilgan mablag'lar doirasida lavozim almashinishi orqali shtatlar jadvaliga belgilangan tartibda kiritishiga ruxsat beriladi.

Oilaviy poliklinikalar quyidagi mezonlar asosida tashkil etiladi:

a) oilaviy poliklinikada xonalar aholini yo'naltirish marshrutiga asosan joylashtiriladi.

- Bunda bemorlarga qulaylik yaratish maqsadida shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish hamda eng ko'p murojaat qilinadigan xonalar oilaviy poliklinikaga kirish joyiga yaqin xonalarda joylashtiriladi;
- oilaviy poliklinikaga kirishda aholi uchun qulay sxema ishlab chiqilib, ro'yxatxonaga hamda bo'limlarga o'tish uchun yo'l belgilari bilan belgilanadi;
- ko'p qavatli bino va inshootlarda tashkil qilingan oilaviy poliklinikalarda har bir qavat uchun bloklarga ajratilgan holda chizma ishlab chiqilib, shifokorlarga yo'llash bo'yicha saralanadi;
- oilaviy poliklinikalar kafolatlangan paket doirasida tibbiy xizmat ko'rsatish uchun jihozlash standartlari asosida barcha zarur asbob-uskunalar bilan jihozlanadi;
- har 2 nafar oilaviy shifokorga kamida 1 ta maxsus jihozlangan shifokordan oldingi ko'rik xonasining bo'lishi optimal hisoblanadi;
- oilaviy shifokorlar xonasi ko'rsatiladigan tibbiy yordamning kafolatlangan paketlariga mos ravishda shifokorlar uchun zarur to'plam (oftalmoskop, tonometr, fonendoskop, pikfloumetr, ko'rish o'tkirligini aniqlash

jadvali, nevrologik bolg'acha va boshqalar), tibbiy mebel hamda personal kompyuter bilan jihozlanadi;

- shifokordan oldingi ko'rik xonasi oilaviy shifokor qabuliga tashrif buyuruvchilar oqimini tartibga solish, shifokor vakolati va aralashuvini talab qilmaydigan funksiyalarni bajarishda shifokor yuklamasini kamaytirish va hamshiraning ushbu yo'nalishdagi vakolatlarini oshirish maqsadida tashkil etiladi hamda unda tibbiyot brigadasining amaliyotchi hamshirasi faoliyat yuritadi.

Shifokordan oldingi ko'rik xonasi faoliyatini samarali tashkil etish, zarur tibbiy jihoz va anjomlar, sarflov materiallari, adabiyotlar (tashxis qo'yish va davolash standartlari, milliy klinik protokollar, algoritmlar, buyruqlar va boshqalar), savolnoma, ko'rgazmali va tarqatma materiallar bilan ta'minlash uchun muassasa rahbari hamda katta hamshira javobgar hisoblanadi.

Shifokordan oldingi ko'rik xonasiga aholi quyidagi masalalar bo'yicha murojaat qilishi mumkin:

- profilaktik tibbiy ko'riklar;
- amaliyot o'tkazish (bemorlar shikoyatlarini o'rganish, antropometriya, tonometriya, EKG va boshqalar);
- bolalarning o'sishi va rivojlanishini baholash;
- profilaktik emlashlar;

Hujjatga taklif yuborish Audioni tinglash Hujjat elementidan havola olish

- skrining tekshiruvlardan o'tish;
- antenatal kuzatuvlar;
- surunkali kasalligi bor bemorlarning dinamik kuzatuv.



Bilib oling!

Oilaviy poliklinika ro'yxatxonasi binoning kirish qismida yoki birinchi qavatida, **“tashrif buyuruvchiga yaqinroq”** tamoyili asosida tashkil etiladi va katta hamshira tomonidan nazorat qilinadi.

Oilaviy poliklinikada **nuroniylar, nogironligi bo'lgan shaxslar va homilador ayollarga** ro'yxatxona tomonidan navbatsiz xizmat ko'rsatiladi.



Oilaviy poliklinikaga murojaat qilish tartibi



Bilib oling!

Aholi oilaviy poliklinikaga murojaatlari quyidagi yoʻnalishlar guruhi asosida murojaat qiladi:

- profilaktik tibbiy koʻrik va skrining tekshiruvlari (Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib va muddatlarda);
- kasalliklarning oʻtkir holatlarida bemorni yoʻnaltirish;
- antenatal parvarish va kuzatuv;
- vaksinatsiya (profilaktik emlashlar);
- shoshilinch holatlar;
- tor soha mutaxassislarining qabuliga yozilish;
- mehnatga layoqatsizlik varaqasini olish;
- nikohlanuvchilarning tibbiy koʻrigi;
- tibbiy maʼlumotnoma olish;
- migrantlarning tibbiy koʻrigi;

- o'lim to'g'risida ma'lumotnoma olish;
- respublika va viloyat darajasidagi tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun imtiyozli yo'llanma olish;
- harbiy xizmatga chaqiriluvchilarning ko'rigi;
- fizioterapiya va reabilitatsiya muolajalarini olish;
- aholi uchun bepul dori vositalarini olish;
- eshitish moslamasi, aravacha, hassa, qo'ltiq tayoqlar va ortopedik oyoq kiyimni olish uchun tibbiy xulosa olish;
- haj safariga borish uchun tibbiy ko'rik ma'lumotnomasini olish.

DIQQAT!

Oilaviy poliklinikalarda tirbandlikning oldini olish, aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish maqsadida bemorlar (aholi) ushbu Nizomga ilovaga muvofiq belgilangan tartibda yo'naltiriladi.

Tibbiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi ma'lumotlar bevosita oilaviy poliklinikadagi axborot stendlariga (rasmiiy veb-sahifasi) joylashtiriladi, shuningdek, muassasaning telefon raqamiga qo'ng'iroq qilish orqali taqdim etiladi.

Aholi ko'rsatilgan tibbiy yordam sifatidan norozi bo'lganda, shuningdek, boshqa sabablar bo'yicha murojaatlar O'zbekiston

Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to’g’risida”gi Qonuniga muvofiq ko’rib chiqiladi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko’rsatilishi uchun aholi o’zi biriktirilgan (yoki yashash joyidagi) tibbiyot brigadasi faoliyat yuritadigan oilaviy poliklinikaning ro’yxatxonasiga shaxsan murojaat qilish orqali yoki maxsus elektron dastur orqali yoxud telefon orqali murojaat qilib, oilaviy shifokori qabuliga navbat oladi.

Tibbiy yordam so’rab murojaat qilgan aholi belgilangan vaqtda qabulga kelishi lozim.

O’zbekiston Respublikasi fuqarolariga, doimiy yashash huquqiga ega bo’lgan va daromad solig’i to’laydigan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo’lmagan shaxslarga ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida kafolatlangan paket doirasida bepul tibbiy yordam ko’rsatiladi. Boshqa hollarda tibbiy xizmatlar pulli asosda ko’rsatiladi (shoshilinch va tez tibbiy yordam bundan mustasno).

Ambulator tibbiy karta oilaviy poliklinika ro’yxatxonasida va (yoki) “Elektron sog’liqni saqlash” axborot tizimlarining yagona kompleksi bazasida elektron shaklda saqlanadi hamda bemorga topshirilishi taqiqlanadi.

Oilaviy shifokor tomonidan zarur hollarda, jismoniy imkoniyati cheklangan (nogiron), harakatlana olmaydigan yoki aqli zaif bemorlarga doimiy yoki vaqtincha yashash joyida kafolatlangan paket doirasida tibbiy xizmat ko’rsatilishi mumkin.’

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami sayyor tibbiy yordam brigadalari tomonidan ham ko’rsatilishi mumkin.



Yakunlovchi qoidalar

26. Tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'i hamda oilaviy poliklinika mudirlari aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish va uni tashkil etish uchun javobgar hisoblanadi.

27. Ushbu Nizomning qoidalari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.



ILOVALAR

Oilaviy poliklinikalarda aholi va bemorlar marshruti

1. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari – tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limlari tizimidagi oilaviy poliklinika va uning filiallarida (keyingi o'rinlarda — oilaviy poliklinika) aholi (bemorlar) profilaktik ko'rikdan o'tishda quyidagi yo'nalishda harakatlanadi:

- tibbiyot brigadasining profilaktik ko'rikdan o'tkazish rejasiga asosan aholi oilaviy poliklinikaga tashrif buyuradi;
- bemor oilaviy poliklinika ro'yxatxonasiga shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki tibbiy ID raqamini taqdim etish orqali shifokor oldi ko'rigi xonasiga elektron yo'llanma (talon) oladi;

- shifokordan oldingi ko'rik xonasida umumiy amaliyot hamshirasi murojaat etuvchining tashrif maqsadi, shikoyati hamda holatidan kelib chiqib, belgilangan tekshiruvlarni bajaradi hamda oilaviy shifokorga yo'naltiradi;
- oilaviy shifokor murojaat etuvchining shikoyatlaridan kelib chiqib, tibbiy ko'rik o'tkazadi, tibbiy ko'rik natijasiga ko'ra kasallik aniqlansa yoki kasallikka gumon qilinsa, zaruratga ko'ra qo'shimcha tekshiruv va tor soha mutaxassislari ko'riklari tavsiya etiladi va bemorga zarur tibbiy yordam ko'rsatiladi (ambulator tibbiy yordam, kunduzgi shifoxonada davolash choralari yoki shifoxonada davanish uchun yo'naltirish);
- agar murojaat etuvchi sog'lom deb topilsa, sog'lom turmush tarziga rioya etish bo'yicha zarur tavsiyalar beriladi;
- oilaviy shifokor yoki tor soha mutaxassisining tavsiyasi asosida qayta ko'rik belgilanganda, aholi oilaviy poliklinika yoki tuman (shahar) markaziy shifoxonasining maslahat-diagnostika bo'linmasi ro'yxatxonasiga murojaat qiladi. Ro'yxatxona xodimiga fuqaro shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki tibbiy ID raqamini taqdim etilganda, to'g'ridan-to'g'ri oila shifokori yoki tor soha mutaxassisiga yo'llanma beriladi.

2. Oilaviy poliklinikada aholi (bemorlar) kasallikning o'tkir holatida quyidagi yo'nalishda harakatlanadi:

- bemor ro'yxatxonaga murojaat qilganda, ro'yxatxona

hamshirasi uni filtr xonaga (alohida xona) bevosita olib boradi;

- oilaviy shifokor bemorni holatiga ko'ra bemorni filtr xonada (alohida xona) qabul qiladi;
- oilaviy shifokor bemorga ambulator sharoitda tibbiy yordam ko'rsatadi hamda ambulator davo muolajalarini tayinlaydi, zaruratga ko'ra tor soha mutaxassislari ko'rigiga yo'naltiradi. Bunda ko'rsatma bo'lsa, bemorni kunduzgi shifoxonaga yoki statsionar davolanish uchun shifoxonaga yuboradi;
- alohida hollarda bemor o'zi birlashtirilgan tibbiyot brigadasi oilaviy shifokorini yashash joyiga chaqirishi mumkin.

3. Aholi (bemorlar) mehnatga layoqatsizlik varaqasini olishda quyidagi yo'nalishda harakatlanadi:

- mehnatga layoqatsizlik varaqalari va mehnatga layoqatsizlik ma'lumotnomalari, sog'liqni saqlash tizimi, shu jumladan, vazirliklar, idoralar va boshqa davlat tashkilotlariga qarashli tibbiyot muassasalarining shifokorlari tomonidan maxsus elektron blankaga kiritiladi va avtomatik tarzda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimlarining yagona kompleksida (keyingi o'rinlarda — Axborot tizimi) saqlanadi. Bunda ma'lumotlarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali olish imkoniyati yaratiladi;
- bemor oilaviy poliklinikaga murojaat qilganda, shifokordan oldingi ko'rik xonasida umumiy amaliyot hamshirasi

murojaat etuvchining tashrif maqsadi, shikoyati hamda holatidan kelib chiqib, belgilangan tekshiruvlarni bajaradi hamda oilaviy shifokorga yo'naltiradi;

- oilaviy shifokor bemorning shikoyati asosida unga zarur tibbiy yordam ko'rsatadi (ambulator tibbiy yordam, kunduzgi shifoxonada davolash choralari va shifoxonada davanish uchun yo'naltirish) va zaruratga ko'ra tor soha mutaxassisiga yo'naltiradi;
- oilaviy shifokor tomonidan tor soha mutaxassisiga yo'naltirilgan bemor tor soha mutaxassisi tomonidan ko'rikdan o'tkaziladi hamda tor soha mutaxassisi tibbiy ko'rigixulosasiasosida belgilangan tartibda oilaviy shifokor tomonidan Axborot tizimi orqali rasmiylashtiriladi;
- yashash joyiga chaqirilganda oilaviy shifokor kun tartibidagi yuklamalarni bajargach, bemorni uyda ko'rikdan o'tkazib, zarur muolajalarni bajaradi va davo muolajalarini belgilaydi hamda oilaviy poliklinikaga qaytganidan so'ng mehnatga layoqatsizlik varaqasini rasmiylashtiradi.

4. Oilaviy poliklinikada aholi (bemorlar) tor soha mutaxassislari qabuliga quyidagicha yo'naltiriladi:

- bemor oilaviy poliklinika ro'yxatxonasiga shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki tibbiy ID raqamini taqdim etish orqali shifokordan oldingi ko'rik xonasiga elektron yo'llanma (talon) oladi;
- shifokordan oldingi ko'rik xonasida umumiy amaliyot hamshirasi murojaat etuvchining tashrif maqsadi,

shikoyati hamda holatidan kelib chiqib, belgilangan tekshiruvlarni bajaradi hamda oilaviy shifokorga (tish og'rig'ida stomatologga) yo'naltiradi;

- oilaviy shifokor bemor shikoyatlaridan kelib chiqib, ko'rik o'tkazadi va zarurat bo'lganida yo'nalish bo'yicha tor soha mutaxassislariga yo'naltiradi;
- tor soha mutaxassisining tavsiyasi asosida qayta ko'rik belgilanganda bemor oilaviy poliklinika yoki tuman (shahar) markaziy shifoxonasining maslahat-diagnostika bo'linmasi ro'yxatxonasiga shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki tibbiy ID raqamini taqdim etish orqali to'g'ridan-to'g'ri tor soha mutaxassisiga yo'naltiriladi.

5. Oilaviy poliklinikada shoshilinch holatlarda aholi (bemorlar) quyidagi yo'nalishda harakatlanadi:

- bemor ro'yxatxonaga murojaat qiladi va ro'yxatxona hamshirasi uni muolaja xonasi yoki shifokor xonasiga bevosita olib boradi;
- oilaviy shifokor bemorni holatiga ko'ra muolaja xonasi yoki shifokor xonasida qabul qiladi;
- oilaviy shifokor bemorga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatadi hamda zaruratga ko'ra tor soha mutaxassislari ko'rigiga yo'naltiradi;
- alohida ko'rsatma bo'lganda, bemorlar statsionar davolanish uchun shifoxonga yo'naltiriladi (oilaviy poliklinika avtotransport vositasida bemor holatiga ko'ra umumiy amaliyot hamshirasi yoki oilaviy shifokor

hamrohligida yoki tez tibbiy yordam mashinasida).

6. Nikohlanuvchi shaxslar tibbiy ko'rikdan o'tishda quyidagi yo'nalishda harakatlanadi:

- nikohlanuvchi shaxslar tibbiy ko'rikdan eksterritorial tamoyilasosidapsixiatrshifokorlar, narkologlar, teri-tanosil kasalliklari shifokorlari, OIV/OITSGa tekshirishdan o'tish, ftiziatrlar (dispanser va tuman kabinetlari) tomonidan tibbiy ko'rik o'tkazish uchun asos hisoblanadigan FHDY organlari tomonidan berilgan yo'llanma bo'yicha bepul o'tkaziladi;
- eksterritorial tamoyil asosida tuman (shahar) markaziy shifoxonasining maslahat-diaagnostika bo'linmasi ro'yxatxonasiga murojaat qiladi;
- nikohlanuvchi shaxslar ro'yxatxona xodimiga shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki tibbiy ID raqamini taqdim etish orqali nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish bo'yicha mas'ul bo'lgan shifokor qabuliga yo'llanma (talon) oladi;
- mas'ul shifokor yo'llanmasiga muvofiq psixiatr shifokor, narkolog, teri-tanosil kasalliklari shifokori, ftiziatr ko'rigiga yuboriladi;
- tor soha mutaxassislari ko'rigidan so'ng nikohlanuvchi shaxslar tibbiy ko'rik natijalarini mas'ul bo'lgan shifokorga taqdim etadi;
- tuman (shahar) markaziy shifoxonasining maslahat-diaagnostika poliklinikasining mas'ul shifokori

nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish natijalari bo'yicha ma'lumotnoma berishda nikohlanuvchi shaxslarda aniqlangan kasalliklarning nikoh tuzilgandan keyin yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlari to'g'risida tushuntirish beradi;

- nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tish muddati tuman (shahar) markaziy shifoxonasining maslahat-dagnostika bo'linmasiga murojaat qilgan kundan boshlab ikki haftadan oshmasligi lozim.

7. Oilaviy poliklinikada aholi bolalarni emlash bo'yicha murojaat qilganda quyidagi yo'nalishda harakatlanadi:

- bolalar milliy emlash rejasi asosida patronaj hamshirasining taklifiga muvofiq oilaviy poliklinika ro'yxatxonasiga ularning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi tomonidan olib kelinadi;
- oilaviy poliklinika ro'yxatxonasiga bolaning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (JSHSHIR) yoki tibbiy ID raqamini taqdim etish orqali shifokordan oldingi ko'rik xonasiga elektron yo'llanma (talon) olinadi;
- shifokordan oldingi ko'rik xonasida umumiy amaliyot hamshirasi bolaning belgilangan ma'lumotlarini rasmiylashtiradi hamda oilaviy shifokorga yo'naltiradi;
- oilaviy shifokor bolani ko'rikdan o'tkazadi, agar bola sog'lom bo'lsa, emlashga ruxsat beradi va emlash xonasiga yuboradi;
- emlashga qat'iy yoki vaqtincha tibbiy cheklov aniqlangan

hollarda oilaviy shifokor bolani sog'lomlashtirish chorasini ko'radi va zaruratga ko'ra pediatrga, immunologga yoki boshqa tor soha mutaxassislariga yo'naltiradi;

- emlashga vaqtincha tibbiy cheklovlar bartaraf qilingandan so'ng oilaviy poliklinika ro'yxatxonasiga bolaning shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki tibbiy ID raqamini taqdim etish orqali to'g'ridan-to'g'ri oilaviy shifokorga yo'llanma beriladi.

8. Aholi tibbiy ma'lumotnoma (086-shakl) olish bo'yicha murojaat qilganda quyidagi yo'nalishda harakatlanadi:

- aholi oilaviy poliklinika ro'yxatxonasiga shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki tibbiy ID raqamini taqdim etish orqali shifokordan oldingi ko'rik xonasiga elektron yo'llanma (talon) oladi;
- shifokordan oldingi ko'rik xonasida umumiy amaliyot hamshirasi murojaat etuvchining tashrif maqsadi, shikoyati hamda holatidan kelib chiqib, belgilangan tekshiruvlarni bajaradi hamda oilaviy shifokorga yo'naltiradi;
- oilaviy shifokor tibbiy ko'rik o'tkazadi va murojaat etuvchini tor soha mutaxassislariga yo'naltiradi, tora soha mutaxassislari tomonidan tibbiy ko'rik o'tkaziladi, zarurat bo'lganda laborator va instrumental tekshiruvlar buyuradi. Tor soha mutaxassislarining ko'rigi xulosalari tuman (shahar) markaziy shifoxonasining maslahat-dagnostika bo'linmasi tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (TMEK) shifokoriga yoki bo'lim mudiriga yo'naltiriladi;

- TMEK shifokori yoki bo'lim mudiri xulosasi murojaat etuvchiga oilaviy poliklinika yoki tuman (shahar) markaziy shifoxonasining maslahat-dagnostika bo'linmasi ro'yxatxonasi orqali beriladi.

9. Oilaviy poliklinikada aholi o'lim to'g'risidagi ma'lumotnoma olish bo'yicha murojaat qilganda quyidagi yo'nalishda harakatlanadi:

- vafot etgan odamning yaqin qarindoshlari oilaviy poliklinika ro'yxatxonasiga vafot etgan odamning shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki tibbiy ID raqamini taqdim etish orqali vafot etgan odam biriktirilgan oilaviy shifokorga yo'naltiriladi;
- oilaviy shifokor o'limni qayd qilish tartibiga muvofiq vafot etgan odamning doimiy yoki vaqtincha yashash joyiga borgan holda o'limni tasdiqlaydi;
- zo'raki o'lim belgilari aniqlanganda, shubhali holatlarda yoki o'limni qayd qilish tartibiga muvofiq vafot etgan odam surunkali kasalliklar tufayli dispanser ro'yxatida turmasa, oilaviy shifokor tomonidan huquq-tartibot organlari xabardor qilinadi;
- oilaviy shifokor tomonidan o'lim to'g'risidagi guvohnoma elektron tizim orqali rasmiylashtiriladi va bir nusxasini vafot etgan odamning yaqin qarindoshlariga taqdim qilinadi.

10. Oilaviy poliklinikada homilador ayollar murojaat qilganda quyidagi yo'nalishda harakatlanadi:

- homilador ayollar homiladorlikning 12-haftasigacha ro'yxatdan o'tishi lozim;
- homilador ayol oilaviy poliklinika ro'yxatxonasiga

shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki tibbiy ID raqamini taqdim etish orqali shifokordan oldingi ko'rik xonasiga elektron yo'llanma (talon) oladi;

- shifokordan oldingi ko'rik xonasida umumiy amaliyot hamshirasi homilador ayolni zarur tekshiruvlardan o'tkazadi va oilaviy shifokorga yo'naltiradi;
- oilaviy shifokor homiladorni ro'yxatga olib, akusher-ginekolog shifokoriga yo'naltiradi;
- akusher-ginekolog shifokor tomonidan homilador ayol belgilangan tekshiruvlardan o'tkaziladi va nazoratga olinadi;
- zaruratga ko'ra boshqa tor soha mutaxassislari ko'rigiga yo'naltiriladi;
- shifokor tavsiyasi asosida qayta ko'rik belgilanganda, homilador ayol oilaviy poliklinika ro'yxatxonasiga shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki tibbiy ID raqamini taqdim etish orqali to'g'ridan-to'g'ri akusher-ginekolog shifokorga yoki zaruratga ko'ra oilaviy shifokor tomonidan boshqa tor soha mutaxassisiga yo'naltiriladi;
- akusher-ginekolog shifokor tomonidan xavf belgilari aniqlanganda statsionar davo uchun yo'llanma beriladi;
- agar homiladorlik xavf belgilarisiz kechayotgan bo'lsa, tibbiyot brigadasining patronaj hamshirasi tomonidan kuzatuvga olinib, kerakli maslahatlar berib boriladi.

11. Oilaviy poliklinikada migrantlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishda ishlar quyidagi yo'nalishda amalga oshiriladi:

- chet elda uch oydan ortiq muddat bo'lganlar ro'yxati hududiy ichki ishlar organlari tomonidan belgilangan tartibda oilaviy poliklinikaga taqdim etiladi hamda ro'yxat muntazam doimiy yangilanib boradi;
- patronaj hamshirasi ro'yxatdagilarni tibbiy ko'rikdan o'tish rejasini tuzib, rejaga muvofiq tibbiy ko'rikdan o'tishga chaqiradi;
- migrant oilaviy poliklinika ro'yxatxonasiga shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki tibbiy ID raqamini taqdim etish orqali shifokordan oldingi ko'rik xonasiga elektron yo'llanma (talon) oladi;
- shifokordan oldingi ko'rik xonasida umumiy amaliyot hamshirasi murojaat etuvchining tashrif maqsadi, shikoyati hamda holatidan kelib chiqib, belgilangan tekshiruvlarni bajaradi hamda oilaviy shifokorga yo'naltiradi;
- oilaviy shifokor murojaat etuvchi shikoyatlaridan kelib chiqib, ko'rik o'tkazadi, zarurat bo'lganda laborator va instrumental tekshiruvlar hamda tor soha mutaxassisiga yo'naltiradi, murojaat etuvchida kasallik belgilari aniqlansa tibbiy yordam ko'rsatiladi (ambulator tibbiy yordam, kunduzgi shifoxonada davolash choralari va statsionar davo uchun yo'naltirish);
- murojaat etuvchi tibbiy ko'rik natijasida sog'lom deb topilganda, unga sog'lom turmush tarziga rioya etish va boshqa zarur tavsiyalar beriladi;

- oilaviy shifokor yoki tor soha mutaxassisining tavsiyasi asosida qayta ko'rik belgilanganda, murojaat etuvchi oilaviy poliklinika yoki tuman (shahar) markaziy shifoxonasi maslahat-diaagnostika bo'linmasi ro'yxatxonasiga murojaat qiladi. Ro'yxatxona xodimiga shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki tibbiy ID raqamini taqdim etilib to'g'ridan-to'g'ri oilaviy shifokor yoki tor soha mutaxassisiga yo'llanma beriladi.

Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish va uni tashkil etish tartibiga oid uslubiy qo'llanma

Nashr uchun mas'ullar:

Muharrir:

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. "Calibri" garniturasida.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.